

## **O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARI ORKESTRI VA DUTOR BAS CHOLG'USINING RIVOLANISH TARIXI**

*Yaqubov Samariddin*

*Termiz pedagogika universiteti magistri*

**Annotasiya:** ushbu maqolada o'zbek xalq cholg'ularining kelib chiqish tarixi, rivojlanishi, xalq cholg'ulari rekonstruksiyasi, dutor bas cholg'usining va xalq cholg'ulari orkestrlarining tarkib topishi masalalari ochib berilgan. O'zbek xalq cholg'ularining musiqiy evalyutsion taraqqiyoti, cholg'ularning o'ziga xos tuzilishi va xususiyatlarini haqida ma'lumotlar berilgan.

**Tayanch so'zlar:** musiqa, xalq cholg'ulari, dutor bas, rekonstruksiyasi, xalq cholg'ulari orkestri, musiqiy asarlar, kompozitor, bastakor

O'quvchi-yoshlarga milliy cholg'ularimizning yaratilish tarixi, shakllanish bosqichlari, rivojlanish jarayonlari haqida ma'lumotlar berish, ularni milliy cholg'ularimizga nisbatan qiziqish va o'rganishga intilish ruhida tarbiyalash musiqa ta'limi oldida turgan muhim pedagogik vazifalardan bir hisoblanadi. bo'lajak musiqa o'qituvchilarining o'quvchilarni cholg'u ijro etishga o'rgatish qatorida, ularni cholg'ular tarixi bilan yaqindan tanishtirib borishi, nazariy bilimlar bilan ham qurollantirishi lozim. O'zbek xalq cholg'ularining kelib chiqishi juda uzoq davrlarga mansubdir. Mutaxassislar keltirgan ma'lumotlarga ko'ra Xalq cholg'ulari uzoq o'tmishda paydo bo'lgan. Ma'lumotlarga qaraganda, dastlabki musiqa cholg'ulari eramizdan avvalgi XIII ming yillikda dunyoga kelgan, deb taxmin qilinmoqda. Musiqachilikda dastlab urma zarbli cholg'ular paydo bo'lgan. Chunki eng qadimgi mehnat ko'shiqlari ishning ritmik tuzilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Undan keyin shovqinli cholg'ular paydo bo'ldi, ijrochilar qarsak chalib ritmni ta'kidlagan, shovqinli cholg'ular

ta'sirini ko'paytirganlar. Ijrochi ayollarning chapak zarblari o'ziga xos, takrorlanmas go'zal holatni vujudga keltirgan. Shu tariqa qadimgi Sharq musiqa madaniyati doirasida o'zbek xalq cholg'ulari ham shakllanib bordi. Xalq cholg'ulari O'rta Osiyo aholisining turmushi tarzi, egallagan kasbu kori, va mehnat faoliyati bilan bog'liq tarkibiy qismi sifatida rivojlanib borgan. Odamlar cholg'ular jo'rligida turli xil mehnat qo'shiqlarini, o'yin va raqslarni turli marosimlarda, bayramlarda ijro etganlar. Shuneingdek mavsumiy bayram va an'ana hisoblangan «Navro'z», «Lola sayli», «Xosil bayrami», «Qovun sayli», «Uzum sayli» kabi mavsumiy bayramlarda xalq cholg'ulari keng qo'llanilgan. Bunday ommaviy sayllar va bayramlarda xalq cholg'u ansamblari ham tashkil etilgan. Ayniqsa karnay, surnay, doira, nog'ora va urma zarbli musiqa cholg'ularidan foydalanilgan bo'lsa, hovlilarda, ayollar davrasida dutor cholg'usini ijro qilish va unga jo'r bo'lib kuylash ularning sevimli mashg'ulotlari hisoblangan. Buyuk faylasuflaridan biri hisoblangan Arastu musiqa sanati haqida quyidagicha fikrlarni ta'kidlaydi: "Musiqa ko'ngilga axloqan muayyan ta'sir ko'rsatuvchi quvvatga ega. Musiqa shunday xislatga ega, u yoshlarni tarbiyalash vositalari qatoriga qo'shilmog'i lozim". O'zbek xalqi ham o'ziga xos milliy an'ana va qadriyatlar bilan mujassamlashgan, ma'naviy boy, go'zal hamda benazir musiqa merosiga. Xalqimiz orasida keng tarqalgan san'at turlaridan biri cholg'u musiqasi hisoblanadi. Xalq cholg'ular xalq ijodiyoti mahsuli bo'lib, azal-azaldan uning ijrosi omma orasida shakllanib, mohir sozanda ustalari tomonidan mukammallshtirilgan. Milliy cholg'ular tarixi bir necha asrlardan beri og'zaki va yozma manbalar vositasida avloddan avlodlarga yetib kelmoqda. Shuningdek asrlar maboynidagi amalda qo'llanilgan cholg'ularning yanada rivojlanishi, evolyutsion taraqqiyotida ham yuzaga kelgan.

O'zbek xalq cholg'ularining musiqiy evalyutsion taraqqiyotida quyidagi o'ziga xos jihatlar kuzatiladi:

- shakli (cholg'uning ko'rinishi)

- tuzulishi (cholg'uning texnik elementlari)
- tembri (cholg'uning ovozi, inntonasiyasi va tonalliknning o'zgarishi)
- tasnifi (cholguning evolyutsiys natijasida o'ziga xos xususiyatlari) kabilarga ega bo'lishi.

Shu bilan bir qatorda nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g'ijjak, qo'biz kabi o'zbek xalq cholg'ularining an'anaviy ko'rinishi, o'ziga xos tuzilishi va xususiyatlarini to'liq saqlagan holda hozirgi davrgacha yetib kelgan.

Milliy cholg'ularda ijrochilik imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Shuni ta'kidlash lozimki cholg'u ijrochilik amaliyotida yakkanavozlikni rivojlanishi qatorida ko'p ovozli jamoalarni tashkillashtirish ishlari ham amalga oshirildi. Bu yo'nalishda N.N.Mironov an'anaviy ansamblda ko'p ovozlilik uslubini kiritishga harakat qildi. Bunning natijasida o'zbek xalq cholg'ular asosan diatonik tovush qatorda bo'lganligi bois, cholg'ularni qayta ishslash va takomillashtirish zaruriyati yuzaga keldi. Natijada o'zbek xalq cholg'ularini rekonstruksiya qilish va takomillashtirish, ularni simfonik musiqa tovush qatori tizimiga o'tkazish ustida ilmiy ishlar boshlab yuborildi. Bu borada A.I.Petrosyans rahbarligi ostida bir guruh ustalar V.V.Andreyev (rus musiqachisi, mohir balalaykachi, rus xalq balalaykasini qayta ishlab, katta-kichik turlarini yaratgan folklorshunos olim) bilan birgalikda tadqiqot ishlari olib borildi. Bunday tadqiqotlar zamirida Usta Usmon Zufarov ko'plab dutor va tanbur, g'ijjaklarning turdosh oilalarini, Matyusuf Xarratov changning yuqori registrini qo'shimcha torlar va xarraklar hisobiga kengaytirgan variantlari yaratildi. Takomillashtirish ishlari ilk bor dutor cholg'usi ustida olib borilgan uning turdosh namunalari Usta Usmon Zufarov tomonidan syaratildi. Natijada turdosh oila namunalaridan dutor prima, sekunda, bas va kontrabas cholg,,ulari qayta ishlandi, dutor alt va tenor cholg'ulari esa takomillashtirildi. Shu nuqtai nazardan, dutor bas cholg'usi aynan shu ilmiy-amaliy tadqiqotlar mahsuli ekanligini bilishimiz mumkin. Xalq cholg'ularining turdosh oila namunalari yaratilishi natijasida ko'p

ovozli ansambl va orkestr ijrochiligi uchun muhim hisoblangan barcha registr ovozlarining ishtiroki ta'minlandi. Xalq cholg'ularining rekostruksiyasi va takomillashuvi xalq cholg'ulari orkestrlarining taraqqiyotiga xizmat qildi. Dastlabki xalq cholg'ulari o'rta asrlarda ustoz-shogird an'analarini vujudga kelib taraqqiy etgan davrga to'g'ri keladi. Ayni shu an'analar vositasida ansambl ijrochiligi takomillashib dastlabki xalq cholg'ulari orkestrlari shakllandi. O'zbekistonda birinchi Xalq cholg'ulari orkestri 1937 yilda N. Mironov tomonidan tashkil etgan. Bu orkestr "Nota orkestri" nomi bilan faoliyat olib borgan. Bu orkestr keyinchalik O'zbek davlat filarmoniyasining ashula va raqs Katta ansambli (rahbar T. Jalilov) sifatida shakllandi. Ansamblning tarkibi an'anaviy xalq cholg'ulari, fortepiano, truba, trombon dan kabi cholg'ulardan iborat bo'lib, repertuaridan qayta ishlangan "Qarinavo", "Segoh" kabi o'zbek mumtoz kuylari bilan bir qatorda chet el kompozitorlarining musiqa asrlaridan tarkib topgan. 1938 yilda O'zbek davlat filarmoniyasi qoshida A. Petrosyans tashatomonidan O'zbek xalq cholg'ulari orkestri tashkil topdi. Mazkur jamoa tarkibiga dastlab an'anaviy - nay, qo'shnay, surnay, g'ijjak, doira, nog'ora, keyinchalik qayta ishlangan cholg'ular - 12 pog'onali teng temperatsiya qilingan tenor va bas changlari, afgon va qashqar ruboblari, dutor, rekostruksiya tadqiqotlari asosida yaratilgan rubob prima, dutor-bas, g'ijjak-kontrabas kabi sozlar kiritilgan. 1957-yilda esa O'zbekiston radiosи qoshida Doni Zokirov tashabbusi bilan Xalq cholg'ulari orkestri tashkil etildi. Bu orkestr 1989 yildan Doni Zokirov nomidagi Xalq cholg'ulari orketri sifatida faoliyat yurgiza boshлага. Bu orkestr ijro uslubida ko'p ovozli musiqa tamoyillari bilan milliy musiqa an'analarining uyg'unlashuvini ko'rish mumkin. Orkestrda sozanda sifatida faoliyat ko'rsatgan bastakorlar M. Mirzayev, F. Toshmatov, K. Jabborov, F. Sodiqov, S. Kolonov, X. Jo'rayev xalq cholg'ulari orkestri uchun ko'pgina asarlar yaratishgan. 1991-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsattan artist, professor Feruza Abduraximova tashabbusi bilan "So'g'diyona" o'zbek xalq cholg'ulari kamer orkestri tashkil topdi. Bu orkestr o'zbek xalq cholg'ulari orkestrlarining yangicha

uslubini o'zida namoyon etdi. Ijro uslubibning murakkabligi, zamonaviyiligi bilan "Sug'diyona" orkestri xalq cholg'ulari orkestrlari ichida katta muvaffaqiyat qozondi. "Sug'diyona" orkestri bugungi kunga qadar 1000 dan ortiq o'zbek xalq va jahon xalqlari mumtoz musiqa namunalari hamda ko'plab buyuk kompozitorlarning mashxur asarlari asarlari ijrosini muvaffaqiyat bilan amalga oshirgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Mirziyoyev Sh.M. "Biz buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz" T.: O'zbekiston 2017,
- 2.Azizzadjayeva N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" Toshkent: "O'qituvchi" 2016 y.
3. Z.Turopov "Dutor bas" Toshkent.: 2004 y.
- 4.A.Odilov "O'zbek xalq cholg'ularrida ijrochilik tarixi" Toshkent 1996 y.